

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida "Issiq yurakning yulduzli kechasi" xayriya loyihasi doirasida "Ijodiy ufqlar: talabalar ko'rgazmasi" nomli tashkil etilgan san'at ko'rgazmasi

tadbir

BAYONNOMASI

2026-yil 12-26-fevral

ATB

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida "Issiq yurakning yulduzli kechasi" xayriya loyihasi doirasida "Ijodiy ufqlar: talabalar ko'rgazmasi" nomli san'at ko'rgazmasi tashkil etildi.

Mazkur tadbirda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalari tomonidan yaratilgan eng sara ijodiy ishlar namoyish etildi. Ko'rgazma kechaning ajralmas qismiga aylandi hamda ATB zalini bezab, tadbir muhitiga alohida badiiy ruh va estetik joziba bag'ishladi.

Ko'rgazmada tasviriy san'at, dizayn va amaliy san'at yo'nalishlaridagi asarlar taqdim etildi. Talabalar ijodiyoti madaniy muloqotni rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va san'at orqali ezgu g'oyalarni targ'ib etish muhimligini yana bir bor namoyon etdi.

Tadbir davomida so'zga chiqqanlar yosh ijodkorlarning salohiyati, ularning professionalligi va izlanishlari tahsinga loyiq ekanini ta'kidladilar. Universitetdagi iliq va ilhomlantiruvchi muhit ko'rgazma mazmunini yanada boyitdi.

Tashkilotchilar tomonidan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rahbariyati va iqtidorli talabalariga ushbu loyiha doirasida qo'shgan hissasi, yuksak professionalligi hamda ijodiy hamkorligi uchun samimiy minnatdorchilik bildirildi.

Tadbir yuqori saviyada, ko'tarinki ruhda o'tkazildi va ishtirokchilarda chuqur taassurot qoldirdi.





Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektor:

N.Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova